
BOSH QOMUSIMIZ KONSTITUSIYANING HAR BIR MODDASI BIZ UCHUN DASTURIAMALGA, HAYOTIMIZ QOIDASIGA AYLANISHI ZARUR.



2022 yil 29 noyabr kuni jinoyat ishlari bo'yicha Quvasoy shahar sudining raisi R.Zaripov Quvasoy shahar "Cho'lpon" mahalla fuqarolar yig'ini binosida tashkil etilgan sayyor uchrashuv yig'ilishida asosiy qomusimiz Konstitusiyamizning 30 yilligi munosabati bilan o'z ma'ruzasida; Yurtboshimiz ta'kidlaganidik asosiy qonunimiz negizida yaratilgan Harakatlar strategiyasi bugungi kunda jonajon Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishda, innovasion va industrial rivojlanish sari odimlashda beqiyos o'rin egallamoqdaligini aytish joiz.

Bugungi kunda asosiy qonunimizni umumta'lim maktablarida, oliy o'quv yurtlarida, mahalla va mehnat jamoalarida tizimli ravishda o'rganish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqilgan, biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitusiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart. Muxtasar qilib aytganda, fuqarolarimiz qonunlarni buzishdan ko'ra, ularga amal qilishdan manfaatdor bo'lishlari lozim. Afsuski, jamiyatimizda hanuzgacha boqimandalik kayfiyati butunlay barham topgani yo'q. Yaxshi yashash uchun eng avvalo yaxshi mehnat qilish, huquq va erkinlik bilan birga, javobgarlik va mas'uliyatni ham chuqur his etishimiz zarur. Ko'zlagan marralarimiz qanchalik yuksak va mashaqqatli bo'lmasin, ularga etish uchun barcha imkoniyatlarimiz mavjud. Ajdodlarimiz merosi, xalqimizning ilmiy va bunyodkorlik salohiyati hamda tadbirkorlik fazilati bizga bu yo'lda beqiyos kuch-qudrat manbai bo'lib xizmat qiladi.

Biz xalqimizning farovon hayotini, farzandlarimizning yorug' kelajagini ta'minlash uchun bundan buyon ham bir tanu bir jon bo'lib, bor salohiyat, bilim va tajribamizni safarbar etish, yurtimiz tinchligi, Vatanimiz ravnaqi, fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini ta'minlash, o'g'il-qizlarimizning ilmga, hunarga bo'lgan intilishlarini har tomonlama kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash kelgusida ham islohotlarimiz markazida bo'ladi. Tashqi siyosatimizda uzoq va yaqin qo'shnilar bilan do'stlik aloqalarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylab, barcha sohalarda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish kerak,

Chunki:

Bilimli avlod – buyuk kelajakning,

tadbirkor xalq – farovon hayotning,

do'stona hamkorlik esa – taraqqiyotning kafolatidir!-deya o'z so'zini yakunladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha

Quvasoy shahar sudining raisi

Zaripov Rustamjon Raxmatjonovich

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-11-29 17:03:50